



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING
Q A R O R I**

2026-yil 23-yanvar

№ 2103

**Sudyalik lavozimida bo'lishning
eng yuqori yoshini uzaytirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Jarqo'rg'on tuman sudining raisi **Bekpulatov Taxir Salimovich**ning sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini 2029-yil 10-dekabrga qadar uzaytirish maqsadga muvofiq deb topilsin.
2. Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Chinoz tuman sudining raisi **Isarov Kaxramon Irisaliyevich**ning sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini 2030-yil 3-sentabrga qadar uzaytirish maqsadga muvofiq deb topilsin.
3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov